

O'ZBEK NASRIDA ASKIYA BELGILARI

Xaitov Xamza Axmadovich

*Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD).*

Annotasiya: Ushbu makolada xalq kulgisi va og'zaki tomosha sanati namunalaridan biri bo'lgan askiyaning yozma adabiyotda badiiy estetik tajriba asosida foydalanish ananasi, hozirgi davr yozuvchilari asarlarida uchraydigan latifa, lof, askiya unsurlari ilmiy-nazariy tahlili qilingan. O'zbek adabiyoti namunalari bo'lgan roman, qissa, xikoya janrlari tarkibiga analitik va sintetik tarzda singdirilgan folklorizm ananalari ilmiy-badiiy, estetik tadqiq qilingan.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ элементов анекдота, лофа, аския, встречающихся в произведениях современных писателей, традиции использования аския, одного из образцов народного смеха и устного творчества, в письменной литературе на основе художественной и эстетический опыт. Традиции узбекской литературы анализируются научно, художественно и эстетически.

Annatation: This article provides a scientific theoretical analysis of the elements of anecdote, lot askiya found in the works of contemporary writers, the tradition of using askiya, one of the examples of folk laughter and oral art, in the written literature on the basis of artistic and aesthetic experience. The traditions of Uzbek literature are analyzed scientificaly, artistically and aesthetically.

Kalit so'zlar: zakiy, donolik, tezkor fikr, payrov, tural, rabbiya, lisoniy birlik, chandish, metafora, o'xshash janr, laqab.

Ключевое слово: Интеллектуал, мудрость, быстрая мысль, пайров, турал, раббия, языковая единица, чандиш, метафора, похожий жанр, прозвище.

Keyword: Intelligence, wisdom, quick thought, payrov, tural, rabbiya, linguistic unit, chandish, metaphor, similar genre, nickname.

Askia o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining og'zaki drama turiga mansub satira-yumor, hozirjavoblik, so'z o'yini, qochiriq, chandish, kinoya, mubolag'ali tezkor fikriy musobaqaga asoslangan alohida, mustaqil, an'anaviy, xushchaqchaq, kulgili ommaviy janrlardan biri bo'lib, tomoshali

soʻz sanʼatining alohida koʻrinishini tashkil qiladi. Askiya ijrosi insondan yuksak tafakkur, oʻta donolik va hushyorlik, hozirjavoblik, oʻtkir zehn, chuqur aql-idrok talab etadi. SHuning uchun “askiya” atamasi ham arabcha “zakiy” soʻzidan olingan boʻlib, soʻzamol, hozirjavob, zakovatli, oʻtkir zehnli degan maʼnolarni anglatadi. Zakiy soʻzining koʻplik shakli “azkiyo” boʻlib, keyinchalik u talaffuzda oʻzgarib, askiya shakliga kelib qolgani aytiladi. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi.

2014-yil 27-noyabrda YUNESKO Bosh qarorgohida oʻtkazilgan Nomoddiy madaniy meros qoʻmitasining 9-sessiyasida askiya insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YUNESKOning Reprezentativ roʻyxatiga kiritilgan. Bu bejizga emas. Chunki askiya – xalqimizning oʻziga xos milliy sanʼat turi. Davrada jonli tarzda oʻtkaziladigan bunday soʻzamollik oʻyini boshqa xalqlarda uchramaydi.

Maʼlumotlarga qaraganda, askiya oʻzbek xalqi orasida koʻp asrlardan beri mavjud boʻlib, uning dastlabki shakli urugʻchilik davrida paydo boʻlgan. Aslida folklor janri hisoblangan askiya yozma tarixiy manbalarda XV-XVII asrlarda keng tarqalgani aytiladi. Shoir va olim Zayniddin Vosifiy (XVI asr) Hirotda askiya keng avj olganini yozadi va oʻnlab mohir askiyachilar orasida eng isteʼdodli Mavlono Abdulvoseʼ Munshiy ismini keltiradi. Askiya haqida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamirlar ham maʼlumot berishgan.

Askiya nafaqat ogʻzaki, balki yozma adabiyotda ham uchraydi. Masalan, «Alpomish», «Kuntugʻmush» dostonlarida, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida askiyaga xos qochirimlar, soʻz oʻyinlariga boy parchalar uchraydi.⁴⁸

Askiyada keng xalq ommasining hayot tarzi, ijtimoiy-madaniy, siyosiy turmush muammolari, mehnat va kurashi, oʻzaro munosabatlari, estetik didi va falsafiy qarashlari oʻz aksini topadi. SHuning uchun askiyalar, odatda, omma orasida, xalq yigʻiladigan joylarda: sayl, toʻy-tomosha, marosim, bayram, mehmondorchilik va doʻstlik davralarida ijro qilinadi.

Soʻz oʻyini va tezkor fikrlash, shiddatli tafakkur qilish musobaqasiga asoslangan askiya ijrosida yo ikki kishi, yo bir necha kishi, yo ikki guruh keng davra olib, baʼzan davrada tik turgancha, baʼzan qarama-qarshi oʻtirgancha, turgancha yo yurgan holatda maʼlum mavzu, badiiy soʻzustida tarafma-taraf boʻlib, bahsli suhbat uyushtiradilar. Suhbat

⁴⁸<https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/askiya-uz/>

jarayoni sof fikrlar kurashiga asoslanadi. Askiyada fikr bildirayotgan “raqib”dan lof ijrosidagi kabi oshirib soʻzlash, uning fikriga javoban yanada chuqurroq maʼnodagi fikrni tezkorlik bilan, loʻnda, mazmundor, serqochirim, latif, taʼsirli, jozibali va kulgili qilib topib aytish, shu bilan undan ustun kelishga urinish gʻoyasi yetakchilik qiladi. Askiyada topib aytilgan har bir soʻz, har bir javob har qancha qattiq, vulgar boʻlmasin, begʻaraz kulgi bilan qabul qilinadi. Birov-birovdan xafalik tuymaydi. Natijada oʻtkir fikr ayta olgan tomon gʻolib sifatida tan olinib, qarsaklar bilan olqishlanadi. Tomoshabinlar kulgisi va ehtirosli qiyqiriqlari, qarsaklari orqali gʻolib askiyachilar ragʻbatlantirib turiladi. Mabodo tomonlardan biri mavzu, [janr](#) doirasidan chetlashsa yoki [soʻz](#) tanlashda pala-partishlikka yoʻl qoʻysa, oʻsha taraf yengilgan hisoblanadi. Sayoz va qoʻpol askiyalardan xalq ranjigan. Askiya ijrosida aytilayotgan fikr birovning shaxsiyatiga tegib ketmasligiga alohida eʼtibor qaratilgan. Buning uchun har bir soʻz va iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkorlikka rioya qilgan.

Askiya aytishuvidan faqat askiyachilar emas, balki ularni tinglab, tomosha qilib turganlar ham cheksiz zavq tuyadilar. Chunki askiya kishi ruhiga, tasavvur va tafakkurga tezda taʼsir eta oladi.

“Hozirjavoblik askiyaning eng muhim shartidir. Biror taraf oʻz vaqtida ustun javob qaytara olmasa (pauza boʻlsa) kulgining avji toʻxtaydi, raqib fikrining oqimida kuchsizlik alomati sezilib qoladi. Hozirjavoblik ogʻizga kelgan gapni gapiraverish emas, balki fikr, zehn, idrok hozirjavobligidir. Muayyan mavzu doirasida mantiqiy izchil fikrlash, zehn ishlatish, soʻzni idrok etish, toʻsatdan aytilgan fikrga tayyorgarliksiz toʻgʻri javob yoʻllash mahorati askiya janrining xususiyati va unda gʻolibni aniqlash shartidir.

Hozircha askiya janrining 30 dan ziyod shakllari aniqlangan. Uning Payrov, Tural, Rabbiya, Afsona, “Oʻxshatdim”, “Boʻlasizmi?”, “Gulmisiz”, rayhonmisiz, janbilmisiz?”, “Bedana”, “Xavsana”, “Qofiya”, “Bilganlar, bilmaganlar”, “Radiʼf”, “Bahri bayt”, “Safsata”, “SHirinkorlik”, “[Laqab](#)” kabiturlari [bor](#). Shular orasida “Tural”, “Rabbiya” sheʼriyyoʻlda aytilishi bilan ajralib turadi.⁴⁹

Askiyaning “Payrov” turi boshidan oxirmaʼlum bir mavzuda izchil fikrlar oqimiga asoslanishi bilan oʻziga xoslik kasb etapdi. Hozir

⁴⁹Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.288.

askiyaning shu turi ko'proq rivoj topgan. Unda askiyachilar belgilangan mavzu doirasidan chetga chiqmaydilar. Mavzudan chekinish askiyachining mag'lubiyatidan dalolat beradi.

Askiyaning "O'xshatdim", "Bo'lasizmi?", "Gulmisiz", rayhonmisiz, janbilmisiz?" kabi kichik shakllarida askiyachi o'z "raqibini" biror shaxsga yoki shaxsning xatti-harakatini biror voqea, hodisaga tenglashtiradi, nisbat beradi, sifatlaydi. Har ikki tomon navbatma-navbat savol-javob qilishadi.

Askiyada laqab ishlatish qadimgi an'analardan sanaladi. Laqab qo'yishda ko'pincha kishilarning tabiiy, jismoniy nuqsonlari e'tiborda tutiladi. Lekin buni masxara qilish, ustidan kulish, kamsitish, haqorat qilish, shaxsiga tegish, behurmatlik singarilar bilan bog'lab bo'lmaydi. R.Muhammadiy aytganidek: "Askiyada laqab askiyachining shaxsiga putur yetkazish maqsadida ishlatilmaydi, balki, askiya syujetini ochish, voqea-hodisalarni ta'riflash shaxslar obrazini yaratish hamda so'z o'yinlari bilan kulgi chiqarish maqsadida vosita sifatida foydalaniladi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor bu haqda shunday degan: "Askiyada bir ilmoq bo'lmasa, kulgi chiqmaydi. Ilmoq xuddi shu laqabdir. Askiya hozirgi vaqtda ikki vazifaga xizmat qilishi kerak: biri – xalqimizning yangi hayot yo'lidagi maqsadini va kurashini ifoda qilishi, ikkinchisi – hayotimizdagi salbiy holatlarni tanqid qilib, xalqimizni estetik tomondan tarbiyalashi zarur. Laqab – askiyaning bu vazifasini yengillashtiradi".⁵⁰

R.Muhammadiy "Askiyada laqab ishlatish qadimgi tradisiyadir" deb ko'rsatadi. Shu an'ana zamonaviy ijodkorlar yaratgan asarlar tarkibidagi askiyalarda ham saqlangani kuzatiladi. Masalan:

- Ha, Laylosh, yana xonador bo'ldingmi?
- Bu oxirgisi, usto bobojon. Boshqa uylanmayman.
- Olganing kimni qizi ekan?
- Tanimaysiz, otasi naro'dni kantrolda ishlagan, o'zi magazinchi, ko'zi to'q xotin.
- Avvalgi eri o'lgan ekanmi?
- Yo'q, erining xarakteri yomon ekan, o'tgan yili ajralibdilar.
- Himm, sani xarakteringni yaxshi, deydimi? Ha mayli, oqibati kor baxayr bo'lsin. Lekin xafa bo'lmasang, bir gap aytaman. Hali yoshsan. Boshqacharoq yo'l tutsang bo'larmidi. Birovni xotini birovga xotinlik

⁵⁰Муҳаммадий Р. Аския. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.9.

qilmaydi. Yana bu yolg'onchi dunyoda ersizga ermak bo'lib qolma, deyman-da, Laylosh...⁵¹

Dastlab yaratilgan ba'zi nasriy asarlarda maydon askiya kulgisi aynan ko'chirilib, tasvirlanayotgan voqea-hodisaga qiziqarli tus berilgani kuzatiladi. Buni Abdulla Qodiriyning qalamiga mansub "Sovinak qori bilan Mag'zava qori",⁵² "Qurbonlik o'g'rilari" kabi hajviyalari ham asoslashga xizmat qiladi. Jumladan:

–Qurbon Hayiti keldi, bu yil qurbonlikdan qalaysiz, Hoji?!

–Hayronman, boy, hayit xarjlari ham ko'payib ketdi.

–Qilish kerak – qilish! Xudoning o'zi yetkazadir. Siz bilan man endi qilmasak bo'lmas.

–Shunisi ham bor, siz va bizni davlat to'g'risida kamchiligimiz yo'q. Qoramolg'a qo'shulsok mumkin?

–Sheriklik oshni itichmas...⁵³

Umuman aytganda, askiya vositasida yaratilgan bunday kulgili epizodlar, askiya yordamida personajlarning nutqini individuallashtirish holatlari juda ko'p asarlarda kuzatiladi. Masalan, Shukur Xolmirzaevning "Yozuvchi" xotira hikoyasida askiyaga asoslangan shunday parcha uchraydi:

Ismat karzinani ko'tarib tusharkan:

– Ko'p to'xtamaymiz-da, – dedi. – Yuzta-yuzta uramiz-u, dalshi olg'a! – Va Baxtiyorga baqirib yuboradi: – Ko'rpachani olmay-sanmi? Seni to'shab o'tiramizmi?

– Pajolista, – deydi shofyor. – To'sholsangiz...

– O'lmapsiz shu askiyangiz bilan... Armiyaga borib, kantujin bo'p keldi... Odil aka, hazil emas, xayoli kirdi-chiqdi bo'lib qolgan buning.⁵⁴

Ko'rinyaptiki, askiyaga asoslangan dialoglarga fikr tizimini izchil ravishda mantiqiy yakuniga yetkazish, badihago'ylik mahoratimuhim ahamiyat kasb etadi. Askiyada harakat vositalariga, so'z qo'llashga, muloqot jarayonidagi tezkorlikka alohida e'tibor qilinadi.

Askiya davr voqealariga hozirjavob janrlardan biridir. Shuning uchun mustaqillik davri ijodkorlari mustabid tuzum voqeliklarini fosh etishda sho'roni tanqid, mazax qiluvchi askiyalardan foydalanishgani

⁵¹Аминов Неъмат. Бир асп ҳикояти (Темирчидан қолган тиллолар). – Т.: Ўзбекистон, 1995.– Б.56.

⁵²"Муштум" журнали. – 1923. – 7-сон. – Б.2.

⁵³"Қизил байроқ" газетаси. – 1922. – 4 август. (№ 205).

⁵⁴Холмирзаев Ш. Сайланма. II жилд. Ҳикоялар. – Т.: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2005. – Б.383. – 464 б.

kuzatiladi. Masalan, bunga N.Aminov ijodidan quyidagi askiyani misol keltirish mumkin:

- Usto bobo, eshitdingizmi?
- Nimani?
- OBXSS boshlig'ining uyidan bir million sakkiz yuz ming so'm pul, ikki kilo tillo chiqibdi. Mol-mulkini musodara qilib, o'zini qamabdilar.
- Bu sho'roning bilganicha bor, qo'yni ham semirtirib so'yadilar-da...⁵⁵

Yana shu o'rinda N.Aminovning sho'ro rahbarlari ustidan kulgi qo'zg'atuvchi quyidagi askiyasini ham misol keltirib o'tish mumkin:

- Usto bobojon, o'sha yillari yana xalq orasida Lelin ikkitaymish: bittasi Lelin emish, yana bittasi – Kal Lelin, degan gapla yurayti.
- To'g'ri, shoirjon, manam eshitganman.
- Keyin bilsak, teskarisi bo'lib chiqti. Kal Lelin deganimiz oynakli, sersoch bo'lib, Lelin boboning o'zlari (atrofga qarab) kalroq ekanla.⁵⁶

Askiyada sho'ro dohiylari sanalgan Lenin va Kalinin ismlariga bog'lab so'z o'yini qilinishidan kulgi paydo bo'lgan.

Askiyani muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilish va kelgusi avlodga yetkazishda undan badiiy asarlar syujetida foydalanishning ahamiyati katta.

Askiya, asosan, erkaklarga xos janr, ammo hozirgi kunda ayollar o'rtasida ham uni kuzatish mumkin⁵⁷ bo'lganligidan badiiy asarlarda ayol personajlar nutqida ham uchratish mumkin.

Askiya aytish kabi uni tushunish ham qiyin. Chunki askiya nozik so'z o'yiniga asoslanadi. Ana shu so'z o'yini mohiyatini tushungan kishigina askiyadan zavq tuyadi. Uni tushunib kuladi. Aks holda, kulgigacha yetib borolmaydi. Askiyaning bosh maqsadi, mohiyati ham so'z o'yini vositasida kulgi hosil qilishga qaratilgandir. Lekin ayrim askiyachi va qiziqchilar odamlarni kuldirish uchun turli nojo'ya gaplarni aytib, ularning diliga ozor ham yetkazishi mumkin. Bunday askiya qadr topolmaydi. Askiya haqiqiy san'at turi bo'lib, askiyachidan chinakam san'atkorlikni talab etadi.⁵⁸

Asarlar tarkibida askiyalar dialog asosida keltiriladi. Ularda lisoniy birliklarning nutqiy voqelanish imkoniyatlari to'la namoyon etiladi.

⁵⁵Аминов Неъмат. Бир аср ҳикояти (Темирчидан қолган тиллолар). – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.39-40.

⁵⁶Аминов Неъмат. Бир аср ҳикояти (Темирчидан қолган тиллолар). – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.16-18.

⁵⁷<http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/346-askiya>

⁵⁸<http://uza.uz/oz/society/askiya-murakkab-s-z-yini-11-06-2015>

Lisoniy birliklardan uddaburonlik bilan turli kombinasiyalar yaratiladi. Soʻzlarning oʻz maʼnosidan tashqari turli koʻchma maʼnolaridan foydalaniladi. Soʻzni «oʻynata» bilish, hozirjavoblik, ekspromt, soʻzamollik, badihagoʻylik va zukkolikka katta ahamiyat qaratiladi. Aks holda, bellashuvchi «raqib»idan yengiladi.

Askiyaga asoslangan matn koʻpincha yumoristik matn sifatida namoyon boʻladi. Unda soʻz oʻyini, badihagoʻylik, teatrallik, sintetizm, komizm, musobaqalilik, sahnaviylik, koʻptalqinli sharhga egalik, milliy-madaniy oʻziga xoslik uygʻunlashib ketadi. Tilida iyhom, tajnis, annominasiya sanʼati yetakchilik qiladi.

Oʻzakdosh soʻzlarni turli shakllarda qoʻllashdan soʻz oʻyini hosil qilinadi. Yana soʻz oʻyinlari hosil qilish uchun fono stilistik usul va vositalar (tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, nutq tovushlarining oʻrnini almashtirish, aralash turdagi tovush oʻzgartirish, urgʻu), leksik usul va vositalar (shakldosh, zid maʼnoli soʻzlar, barqaror birikmalar, oʻxshatish, metafora va ramzlar), morfologik usul va vositalar (juft soʻzlar, takroriy soʻz shakllari), sintaktik usul va vositalar (sintaktik omonimiya, polifunksional hamda polisemantik gap boʻlaklari, uslubiy takror, sintagmalash usuli) kabilardan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, askiyalar oʻzbek xalqining kulgi sevarlik tabiatini yana bir bor oʻzida namoyon etadi. Qizigʻi shundaki, oʻzbek askiyalariga oʻxshash janr boshqa xalqlar folklorida deyarli kuzatilmaydi. Askiya folklorning hajviy-yumoristik tabiatga ega ommaviy janrlaridan biri boʻlib, kulgi uygʻotishga, kishilarning ruhiyati, kayfiyati, zavq va hayratini oshirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Kulgiga juda oʻch oʻzbeklar hazilni, taqlidni, kulgini hamisha qadrlab kelgan. SHuning uchun yaratilgan badiiy asarlar tarkibida xalq kulgi sanʼatiga aloqador askiya, latifa, lof, xalq muqallidchilik sanʼati namunalarini uchratish mumkin. Ular inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi horgʻinlik va xastaliklarni haydash quvvatiga egaligi bilan shunday qadr topgan.

Askiya asosida shakllantirilgan epizodlarda maishiy hayotdagi turli lavhalar, vaziyatlar, voqea-hodisalar yuzasidan muallif oʻz mulohazalarini kulgili qilib ifodalaydi. Bu esa muallifning bunday holatlarga nisbatan munosabatini bilib olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/askiya-uz/>
2. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. – T.: Oʻqituvchi, 1990. – B.288.

3. Muhammadiy R. Askiya. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1970. – B.9.
4. Aminov Neʻmat. Bir asr hikoyati (Temirchidan qolgan tillolar). – T.: Oʻzbekiston, 1995.– B.56.
5. “Mushtum” jurnali. – 1923. – 7-son. – B.2
6. “Qizil bayroq” gazetasi. – 1922. – 4 avgust. (№ 205).
7. Xolmirzaev Sh. Saylanma. II jild. Hikoyalar. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005. – B.383. – 464 b.
8. Aminov Neʻmat. Bir asr hikoyati (Temirchidan qolgan tillolar). – T.: Oʻzbekiston, 1995. – B.39-40.
9. Aminov Neʻmat. Bir asr hikoyati (Temirchidan qolgan tillolar). – T.: Oʻzbekiston, 1995.– B.16-18.
10. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/346-askiya>
11. <http://uza.uz/oz/society/askiya-murakkab-s-z-yini-11-06-2015>